



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

2-jild
2-son
fevral, 2026

February, 2026
Volume 2
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Неземайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



PAHTA-TO‘QIMACHILIK AGROKLASTERLARIDA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI, ULARNING TARKIBIY O‘ZGARISHLARI VA IQTISODIY TAHLILI

Berdiyev Abdumalik Hakimovich

ПРОИЗВОДСТВЕННЫЕ ЗАТРАТЫ В ХЛОПКОВО-ТЕКСТИЛЬНЫХ АГРОКЛАСТЕРАХ, ИХ СТРУКТУРНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Бердиев Абдумалик Хакимович

PRODUCTION COSTS IN COTTON-TEXTILE AGROCLUSTERS, THEIR STRUCTURAL CHANGES AND ECONOMIC ANALYSIS

Berdiyev Abdumalik Hakimovich

Received: February 5, 2026 Revised: February 9, 2026 Accepted: February 14, 2026 Published: March 1, 2026

Annatatsiya: Ushbu maqolada paxta-to‘qimachilik agroklastlarida mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari, ularning tarkibiy o‘zgarishlari va iqtisodiy samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Bundan tashqari agroklastlarda paxta etishtirish xarajatlari, ish haqi, mineral o‘g‘itlar, yonilg‘i-moylash materiallari va boshqa tarkibiy xarajatlarning dinamikasi ko‘rib chiqilgan. Tahlil natijalari ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, xarajatlarning optimallashtirilishi hamda paxta ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlaydi. Shuningdek, mexanizatsiyalashtirish va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali agroklastlarning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini kuchaytirish istiqbollari ilmiy asosda bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: paxta-to‘qimachilik agroklastlari, ishlab chiqarish xarajatlari, tarkibiy o‘zgarishlar, iqtisodiy tahlil, hosildorlik, mehnat resurslari, mexanizatsiya, yonilg‘i-moylash materiallari, resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация: В данной статье с научной точки зрения проанализированы затраты на производство продукции в хлопково-текстильных агрокластерах, их структурные изменения и экономическая эффективность. Кроме того, рассмотрена динамика расходов на выращивание хлопка, оплату труда, минеральные удобрения, топливно-смазочные материалы и другие составляющие затраты. Результаты анализа позволяют определить возможности эффективного использования производственных ресурсов, оптимизации расходов и повышения экономической эффективности производства хлопка. Также научно обоснованы перспективы устойчивого развития и повышения конкурентоспособности агрокластеров через внедрение механизации и энергосберегающих технологий.

Ключевые слова: хлопково-текстильные агрокластеры, затраты на производство, структурные изменения, экономический анализ, урожайность, трудовые ресурсы, механизация, топливно-смазочные материалы, эффективное использование ресурсов, экономическая эффективность.

Abstract: This article provides a scientific analysis of production costs in cotton-textile agro-clusters, their structural changes, and economic efficiency. In addition, the dynamics of expenditures on cotton cultivation, labor costs, mineral fertilizers, fuel and lubricants, and other cost components are examined. The results of the analysis



allow for identifying opportunities for efficient use of production resources, cost optimization, and improvement of the economic efficiency of cotton production. Furthermore, the study scientifically substantiates the prospects for sustainable development and increasing the competitiveness of agro-clusters through the implementation of mechanization and energy-saving technologies.

Keywords: cotton-textile agro-clusters, production costs, structural changes, economic analysis, yield, labor resources, mechanization, fuel and lubricants, efficient use of resources, economic efficiency.

■ KIRISH

Jahon iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish hamda raqobatbardosh tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlashda agrosanoat klasterlari muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, paxtachilik va to'qimachilik sohalari o'zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirishga qaratilgan paxta-to'qimachilik agroklastarlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va eksport salohiyatini kuchaytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini tarkibiy isloh qilish, paxta xomashyosini etishtirishdan tortib tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishgacha bo'lgan yagona texnologik zanjirni shakllantirish maqsadida paxta-to'qimachilik agroklastarlari tizimi joriy etildi. Ushbu tizim doirasida ishlab chiqarish xarajatlarining shakllanishi, ularning tarkibiy tuzilishi va dinamikasi iqtisodiy samaradorlikni belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida mehnat haqi, yonilg'i-yog'lash materiallari, mineral o'g'itlar, urug'lik, suv ta'minoti, asosiy vositalar amortizatsiyasi hamda boshqa ishlab chiqarish va boshqaruv xarajatlarining ulushi yillar kesimida sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Bu esa paxta-to'qimachilik agroklastarlari xarajatlari tarkibiy o'zgarishlarini chuqur iqtisodiy tahlil qilish, ularning ishlab chiqarish natijalariga ta'sirini aniqlash va xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot paxta-to'qimachilik agroklastarlari ishlab chiqarish xarajatlarining shakllanishi, tarkibiy o'zgarishlari va iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini kompleks tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, uning natijalari sohada boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va klaster faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlashda amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda.

Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat - korrupsiya balosini yo'qotishda ham ular samarali vositadir. Buni

barchamiz teran anglab olishimiz darkor" [1].

Biroq, agroklastarni iqtisodiy mohiyati, tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari, shart-sharoitlari, bosqichlari va samaradorligini aniqlash borasida keng qamrovli nazariyasining to'liq shakllanmaganligi natijasida turlicha yondashuvlar mavjudligidan kelib chiqqan holda, bevosita agroklastar bilan bog'liq bo'lgan nazariy qarashlarni o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Klaster tizimlarining shakllanishi va faoliyatiga ko'plab iqtisodiy va texnologik jarayonlar ta'sir ko'rsatadi. Klasterlar ichidagi iqtisodiy jarayonlar ishlab chiqarish tarmoqlari, bozorga kirish, tadbirkorlik va klasterning tashqi ta'sirini o'z ichiga oladi, texnologik jarayonlar esa tadqiqot va ishlamlar bo'yicha hamkorlik, innovatsion ekotizimlar, texnologiyalar transferi va raqamlashtirishni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonlarni va ularning o'zaro ta'sirini tushunish klasterga asoslangan rivojlanish salohiyatidan foydalanish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun juda muhimdir.

Klaster tushunchasi keng qamrovli ma'noga ega bo'lib, uni turli sohalarda turlicha shaklda qo'llab kelishmoqda. G'arbiy Yevropa va Amerika olimlari klaster tizimlarida samarali iqtisodiy va texnologik jarayonlarni tushunish va rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar. Ularning tadqiqotlari klasterlar dinamikasi, innovatsiyalarning ahamiyati, mintaqaviy va milliy iqtisodiy rivojlanishdagi klasterlarning roli haqida tushuncha beradi.

L.Berg va boshqalar o'z tadqiqotlarida Yevropaning to'qqizta shahar mintaqasidagi klasterlar dinamikasini tahlil qilib, klasterlarning ishlashi klasterlarning o'ziga xos sharoitlariga va umumiy fazoviy-iqtisodiy vaziyatga bog'liqligini ta'kidlaydi [2]. Ushbu tadqiqot iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda klaster dinamikasini tushunishga integral yondashuv muhimligini ta'kidlaydi.

R.Martin va P.Sunley Maykl Porterning klaster nazariyasini tanqidiy tahlil qilib, turli nazariy va empirik muammolar tufayli siyosatni ishlab chiqishda klaster konsepsiyasini yanada ehtiyotkorlik bilan qo'llash zarurligini ta'kidlaydi [3]. Ularning ishi klasterning afzalliklari va muammolarini chuqur tushunishni talab qiladi.

P.Braunerhjelm va M.Feldman texnologiyaga asoslangan sanoat klasterlarining kelib chiqishi va paydo bo'lishini o'rganib, klasterlarni shakllantirishda tadbirkorlik faoliyati va institutsional qo'llab-quvvatlashning rolini ta'kidlaydi [4]. Ushbu tadqiqot klasterlarning paydo bo'lish jarayoni va klaster paydo bo'lishini rag'batlantirish siyosatining ahamiyatini ta'kidlaydi.

N.Trushkina va V.Shiposha: Yevropa mamlakatlari milliy iqtisodiyotlari rivojlanishini ta'minlash va innovatsion ekotizimlarni o'zgartirishda klaster tuzilmalarining samaradorligini tahlil qildi. Ular



klasterlarni mahalliy sharoitlar va raqobatdosh ustunliklarga asoslangan muvozanatli barqaror rivojlanishga yordam beruvchi mintaqaviy siyosatning hal qiluvchi elementi sifatida ta'kidladilar [5].

S.Lin va boshqalar fikricha, "sanoat klasteriga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish uchun tizim dinamikasi metodologiyasini qo'llagan, klasterlarning raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyatini aniqlashda ishchi kuchi, texnologiya, pul va bozor oqimlarining ahamiyatini ta'kidlagan. Ushbu yondashuv sanoat klasterlariga ta'sir qiluvchi murakkab munosabatlarni tushunishga yordam beradi" [6].

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab "...tarmoqlararo kooperatsiyani kengaytirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, sust rivojlangan hududlarning ishlab chiqarish-eksport salohiyatini oshirish vositasi" [7] sifatida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida klasterlar shakllantirila boshlandi. Bunda "...mamlakatda er-suv resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, hududlarning mutanosib rivojlanishini ta'minlash kabi maqsadlarga erishishda hududiy agrosanoat klasterlari muhim omil hisoblanadi" [8]. 2022-2026 yillarda paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish orqali O'zbekistonda "...tarmoq mahsuloti hajmini 2 baravar" [9] ga oshirish, jumladan, Buxoro viloyatida "...paxta tolasi va ip-kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga etkazish va eksport hajmini 4 baravar" [10] ga oshirish rejalashtirilgan. Shundan kelib chiqib, mintaqalarda paxta-to'qimachilik tarmog'ini klasterlar vositasida jadal rivojlantirish, ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biriga aylangan.

■ TADQIQOT METOLOGIYASI

Tadqiqotda paxta-to'qimachilik agroklastlarida ishlab chiqarish xarajatlari va ularning tarkibiy o'zgarishlarini tahlil qilishda tizimli va kompleks yondashuv asosida statistik va qiyosiy tahlil usullari yordamida xarajat moddalarini tarkibi, ularning dinamikasi hamda iqtisodiy samaradorligi baholandi. Tadqiqotda induksiya va deduksiya, ilmiy abstraksiya hamda mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Axborot bazasi sifatida rasmiy statistik ma'lumotlar, agroklastlar hisobotlari va ilmiy manbalar sifatida xizmat qildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish xarajatlari to'g'ri hisoblash va tahlil qilish mahsulot tannaxrini pasaytirish, resurslardan samarali foydalanish hamda umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, Qashqadaryo viloyatidagi yirik paxta-to'qimachilik agroklastlaridan biri hisoblangan "Koson Baxt tekstil" MChJ misolida 2022-2024-yillar davomida paxta etishtirish xarajatlari va ularning tarkibiy o'zgarishlarini tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tahlil qilinayotgan davrda klaster ixtiyoridagi paxta ekin maydoni 2022- yildagi 14195 gektardan 2024-yilda 14349 gektargacha kengaygan bo'lib, o'sish 154

gektarni tashkil etgan. Yer maydonining kengayishi bilan bir qatorda, hosildorlik ko'rsatkichi ham ijobiy dinamikaga ega bo'lib, 27,0 ts/ga dan 30,0 ts/ga gacha oshgan. Natijada yalpi hosil hajmi 38124 tonnadan 43120 tonnaga etgan va 4996 tonnaga o'sish kuzatilgan. Bu holat agrotexnik tadbirlarning samarali amalga oshirilganini hamda ishlab chiqarish salohiyati oshganini ko'rsatadi.

2022 -yilda paxta etishtirish bo'yicha jami xarajatlar 168997 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 214330 mln. so'mga etgan. Natijada jami xarajatlar 45333 mln. so'mga oshgan. Bir gektar er maydoniga to'g'ri keladigan xarajatlar ham 11,90 mln. so'mdan 15,0 mln. so'mgacha ko'tarilib, 3,03 mln. so'mga o'sgan. Bu holat ishlab chiqarish resurslari qiymatining oshishi, ish haqi va yonilg'i-moylash materiallari xarajatlarining ko'payishi bilan izohlanadi.

Ish haqi va unga tegishli ajratmalar paxta etishtirish xarajatlari tarkibida eng katta ulushni egallagan. 2022- yilda ushbu xarajatlar 65401,8 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilda 90875,9 mln. so'mga etgan. Natijada ish haqi xarajatlari 25474,0 mln. so'mga oshgan va ularning jami xarajatlardagi ulushi 38,7 foizdan 42,4 foizgacha ko'tarilgan.

Ayniqsa, qo'l terimi uchun to'lanadigan ish haqi xarajatlarining keskin oshgani e'tiborga molik. Mazkur xarajatlar 37279,0 mln. so'mdan 59069,3 mln. so'mgacha o'sgan bo'lib, bu mehnat resurslariga bo'lgan talabning saqlanib qolayotganini va qo'l mehnati ulushi yuqoriligini ko'rsatadi.

Mineral o'g'itlar xarajatlari 2022 -yilda 18589,6 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilda 21861,6 mln. so'mga etgan. Ushbu xarajatlar jami xarajatlardagi ulushi 11,0 foizdan 10,2 foizga pasaygan bo'lsa-da, absolyut hajmda o'sish kuzatilgan. Ayniqsa, fosforli va kaliyli o'g'itlar xarajatlarining ortishi tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan agrotadbirlar kuchayganini anglatadi.

O'simliklarni himoya qilish va defoliantlar uchun xarajatlar ham 5407,9 mln. so'mdan 6858,5 mln. so'mga oshgan bo'lib, bu intensiv etishtirish texnologiyalarining qo'llanilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, agroximkartogramma ishlariga sarflangan xarajatlar keskin kamaygani (507,9 mln. so'mdan 214,3 mln. so'mgacha) mazkur xizmatlarni optimallashtirish yoki avvalgi yillarda to'plangan ma'lumotlardan foydalanish bilan izohlanishi mumkin.

Mexanizatsiya xizmati uchun xarajatlar 35658,3 mln. so'mdan 41151,3 mln. so'mga oshgan bo'lsa-da, ularning jami xarajatlardagi ulushi 21,1 foizdan 19,2 foizga kamaygan. Bu mexanizatsiya darajasi oshgani bilan birga, boshqa xarajat turlarining tezroq o'sganini ko'rsatadi.

Yonilg'i-moylash materiallari (YoMM) xarajatlari esa eng yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lib, 14702,7 mln. so'mdan 26791,2 mln. so'mgacha ko'tarilgan. Ushbu xarajatlar ulushining 8,7 foizdan 12,5 foizga oshishi energiya resurslari narxlarining sezilarli qimmatlashganidan dalolat beradi.



Qashqadaryo viloyat “Koson Baxt tekstil” MChJ paxta-to‘qimachilik klasterida mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari va ularning kalkulyatsiyasi tahlili

T/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2022 yilda			2024 yilda			2022 yilga nisbatan 2024 yilda o‘zgarishi, (+;-)	
			Jami xarajat, mln. so‘m	1 gektarga xarajat, mln. so‘m	Jami xarajat-dagi ulushi	Jami xarajat, mln. so‘m	1 gektarga xarajat, mln. so‘m	Jami xarajat-dagi ulushi	Jami xarajat, mln. so‘m	1 gektarga xarajat, mln. so‘m
1	Paxta ekin maydoni	ga	14195			14349			154	
2	Hosildorlik	ts/ga	27			30			3	
3	Yalpi hosil	tonna	38124			43120			4996	
4	Jami xarajat		168997	11,90	100%	214330	15	100%	45333	3,03
a)	shu jumladan: Ish haqi, ajratmalari bilan (qo‘lda bajariladigan ishlar uchun)	mln. so‘m	65401,8	4,6	38,7	90875,9	6,33	42,4	1,73	25474,0
	shundan qo‘l terimi uchun	mln. so‘m	37279,0	2,62		59069,3	3,60		21 790,3	0,98
b)	Mineral o‘g‘itlar	mln. so‘m	18589,6	1,3	11	21861,6	1,53	10,2	0,23	3271,9
	azotli	mln. so‘m	13570,4	0,94		13991,4	0,97		421,0	0,03
	fosforli	mln. so‘m	4554,4	0,31		6667,8	0,46		2113,3	0,15
	kaliyli	mln. so‘m	464,74	0,05		1202,3	0,1		737,65	0,05
v)	O‘simliklarni himoya qilish, defoliantlar xarajati	mln. so‘m	5407,9	0,14	3,2	6858,5	0,16	3,2	0,02	1450,6
d)	Agroximkartogramma (tuproq tahlil) ishlari	mln. so‘m	507,9	0,03	0,3	214,3	0,01	0,1	-0,02	-293,6
e)	Urug‘lik qiymati	mln. so‘m	7266,8	0,51	4,3	6858,5	0,48	3,2	-0,03	-408,3
yo)	Mexanizatsiya xizmati (dizel yonilg‘isiz)	mln. so‘m	35658,3	2,51	21,1	41151,3	2,88	19,2	0,37	5493,0
j)	YoMM qiymati	mln. so‘m	14702,7	1,03	8,7	26791,2	1,87	12,5	0,84	12088,5
z)	SIU xizmati uchun to‘lovlar	mln. so‘m	1182,9	0,08	0,7	1714,6	0,12	0,8	0,04	531,6
i)	Elektroenergiya xarajatlari	mln. so‘m	675,9	0,04	0,4	642,9	0,04	0,3	0	-32,9
k)	Yagona er solig‘i to‘lovi	mln. so‘m	3548,9	0,24	2,1	3857,9	0,27	1,8	0,03	309,0
l)	Boshqa xarajatlar	mln. so‘m	16223,7	1,14	9,6	13717,1	0,96	6,4	-0,18	-2506,5

Yagona er solig‘i to‘lovlari miqdori mutanosib ravishda oshgan bo‘lib, 3548,9 mln. so‘mdan 3857,9 mln. so‘mga etgan. Boshqa xarajatlar esa aksincha, 16223,7 mln. so‘mdan 13717,1 mln. so‘mga kamaygan. Bu xarajatlar tarkibini optimallashtirish va ayrim samarasiz sarflarni qisqartirish choralari ko‘rilganini ko‘rsatadi, (1-jadval)/

Umuman olganda, “Koson Baxt tekstil” MChJ paxta-to‘qimachilik klasterida 2022-2024- yillar davomida ishlab chiqarish hajmlari va hosildorlik oshgani bilan birga, jami xarajatlar ham sezilarli darajada ko‘paygan. Ayniqsa, ish haqi va YoMM xarajatlarning o‘sishi ishlab chiqarish tannarxiga bosim o‘tkazayotgan asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, kelgusida mehnat jarayonlarini yanada

mexanizatsiyalash, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va resurslardan samarali foydalanishni kuchaytirish orqali paxta etishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari korxona faoliyatida mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sarflanadigan barcha resurslar qiymati birlashtirib, ular iqtisodiy natijalarni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarni oqilona boshqarish, ularning tarkibiy tuzilishi va dinamikasini chuqur tahlil qilish korxonalar raqobatbardoshligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarning iqtisodiy mazmuni mehnat, moddiy, moliyaviy va boshqa



resurslardan foydalanish bilan bog'liq bo'lib, ular mahsulot tannarxini belgilashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Amaliyotda ishlab chiqarish xarajatlari moddiy xarajatlar, mehnatga haq to'lash, ijtimoiy ajratmalar, asosiy vositalar amortizatsiyasi hamda boshqa xarajatlar tarkibida shakllanadi. Ushbu elementlar o'rtasidagi mutanosiblik ishlab chiqarish samaradorligi darajasini ifodalovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Iqtisodiyotda ro'y berayotgan institutsional va texnologik o'zgarishlar ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibiy tuzilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va raqamlashtirish natijasida mehnat xarajatlari ulushining nisbiy kamayishi, asosiy vositalar va energiya resurslari xarajatlarining esa oshishi kuzatiladi. Bunday tarkibiy o'zgarishlar ishlab chiqarish jarayoni samaradorligini oshirish bilan birga, xarajatlardan foydalanish sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibiy o'zgarishlarini tahlil qilish orqali korxona faoliyatida mavjud ichki zaxiralarni aniqlash, samarasiz xarajat yo'nalishlarini qisqartirish hamda resurslardan foydalanish darajasini optimallashtirish imkoni yuzaga keladi. Bu esa mahsulot tannarxini pasaytirish, foyda hajmini oshirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga zamin yaratadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud bo'lib, iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish natijalari bilan unga sarflangan xarajatlar o'rtasidagi nisbat orqali ifodalanadi. Xarajatlarni ilmiy asosda boshqarish, ularning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish orqali ishlab chiqarish rentabelligi va umumiy iqtisodiy natijadorlikni oshirish mumkin. Shu bilan birga, xarajatlarni faqat qisqartirish emas, balki ularni maqsadli va samarali yo'naltirish iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish xarajatlari, ularning tarkibiy o'zgarishlari va iqtisodiy samaradorlik o'zaro bog'liq iqtisodiy kategoriyalar bo'lib, ularni chuqur ilmiy tahlil qilish korxonalar faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va ularning tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlarni tizimli ravishda baholab borish iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari paxta-to'qimachilik agroklastlarida ishlab chiqarish xarajatlarining shakllanishi va tarkibiy tuzilishi ko'p omilli jarayon ekanligini ko'rsatdi. Xarajatlar tarkibida mehnat haqi, mineral o'g'itlar, yoqilg'i-moylash materiallari hamda asosiy vositalar amortizatsiyasi ulushi yuqori ekani aniqlandi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda resurslar narxining o'sishi natijasida ishlab chiqarish tannarxining oshib borish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Iqtisodiy tahlil natijalari agroklastlar doirasida paxta etishtirish va uni qayta ishlash integratsiyasi xarajatlarni qisqartirish, mahsulot qo'shimcha qiymatini oshirish hamda umumiy iqtisodiy samaradorlikni

ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Shuningdek, resurslardan samarali foydalanish darajasi klasterlar faoliyatining rentabelligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Paxta-to'qimachilik agroklastlarida ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarishda xarajatlarning funksional tahlili asosida resurslar sarfini me'yorlashtirish va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish.

2. Qishloq xo'jaligida resurs tejovchi va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali yoqilg'i, o'g'it va mehnat xarajatlarini qisqartirish.

3. Paxta xom-ashyosini qayta ishlash ulushini oshirish orqali mahsulot qo'shimcha qiymatini ko'paytirish va klasterlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash.

4. Agroklastlarda xarajatlar samaradorligini baholovchi yagona iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish va amaliyotga joriy etish.

5. Davlat tomonidan investitsiyaviy qo'llab-quvvatlash va imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Berdiyev Abdumalik Hakimovich Axborot texnologiyalari va menejment universiteti professori / Бердиев Абдумалик Хакимович, профессор Университета информационных технологий и менеджмента / Berdiyev Abdumalik Hakimovich, Professor at the University of Information Technologies and Management

E-mail: a.berdiyev197501@gmail.com

ORCID: 0009-0003-2842-9802

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.// «Xalq so'zi», 2020 y., 25 yanvar.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyuldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/mobileact/3107036>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-apreldagi 215-son "2022-



2026 yillarda Buxoro viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
<https://lex.uz/docs/5988275>

⁶. Martin, R., & Sunley, P. (2003). Deconstructing clusters: chaotic concept or policy panacea? *Journal of Economic Geography*, 3, 5-35.
<https://doi.org/10.1093/JEG/3.1.5>.

7. Braunerhjelm, P., & Feldman, M. (2008). Cluster genesis: technology-based industrial development. *Economic Geography*, 84, 245-246.
<https://doi.org/10.1093/ACPROF:OSO/9780199207183.001.0001>.

8. Trushkina, N., & Shiposha, V. (2021). Clustering of the national economy as an effective tool for the sustainable development of european countries. *Three Seas Economic Journal*.
<https://doi.org/10.30525/2661-5150/2021-4-11>.

9. Lin, C., Tung, C., & Huang, C. (2006). Elucidating the industrial cluster effect from a system dynamics perspective. *Technovation*, 26, 473-482.
<https://doi.org/10.1016/J.TECHNOVATION.2004.11.008>.

10. Berdiev, A. H. (2019). Prospects of agricultural development: problems and solutions. *Journal of Economics and Finance*, (11), 131.

11. Бердиев, А. Х., & Расулов, Х. К. (2024). Перспективы развития агрокластеров. *Экономика и социум*, (5-1 (120)), 1128-1135.

12. Berdiyev, A. H. (2024). Further development of free market relations of cotton textile clusters. *Экономика и социум*, (3-1 (118)), 83-87.

13. Berdiyev, A. H. (2024). Priority tasks of agricultural development and their implementation mechanisms. *Экономика и социум*, (3-1 (118)), 78-82.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz